


## XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarining o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 982,7 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga oshdi.

O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 194 ta korxona va tashkilotlarda tashkil qildi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda**

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*




**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming so‘m**

(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz)


**SANOAT SOHASIDA**



**QURILISH SOHASIDA**




**SAVDO SOHASIDA**



**TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA**



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA




Yanvar-dekabr

**7 527,8  
ming so'm**



## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA




Yanvar-Dekabr

**12 331,1  
ming so'm**



## TA'LIM SOHASIDA



Yanvar-Dekabr

**3 040,3  
ming so'm**



## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASIDA



Yanvar-Dekabr

**3 064,0  
ming so'm**



**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqininig iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlili:**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Sanoat** sohasidagi 62 ta korxona va tashkilotlarda 47,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,3 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 3 250,4 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 30,9 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 5 681,3 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 16,6 % ga o‘sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 27 ta korxonada 1,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,6 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 62,3 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 735,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 55,1 % ga o‘sdi.



**Savdo** faoliyat turidagi 16 ta korxonada 1,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 66,8 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 592,1 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 36,2 % ga o‘sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 12 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 45,1 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 357,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,8 % ga o‘sdi.



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasidagi 3 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 4,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,01 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 583,2 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 61,7 % ga o'sdi.



**Axborot va aloqa** sohasidagi 8 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 85,4 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 7 527,8 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,0 martaga o'sdi.

#### **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik**

iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 610,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 12 331,1 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 26,1 % ga o'sdi.



**Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1 511 ta korxonada 95,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 3 426,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 32,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 040,3 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o'sdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 72 ta korxonada 44,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,7 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 637,4 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 064,0 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga o‘sdi.




**San’at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasidagi** 68 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 74,7 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 876,4 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 22,9 % ga o‘sdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 392 ta korxonada 25,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 1 249,0 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 11,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 102,9 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga o‘sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng yuqori o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 12 331,1 ming so‘mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko‘rsatkichlar sanoat faoliyat turida (5 681,3 ming so‘m) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (7 527,8 ming so‘m) kuzatildi. Eng past ko‘rsatkich esa Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 2 583,2 ming so‘mni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,  
ming so‘mda)**



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (6 205,5 ming so‘m), Andijon shahrida (5 112,2 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati  
(2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)**




## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-dekabr oylarida; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur’ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 395,6</b>	<b>3 982,7</b>	<b>117,3</b>
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	4 322	5 112,2	118,3
Xonobod sh.	3 675,4	4 150	112,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko‘l	2 312,4	3 144,8	136,0
Andijon	2 613,5	3 040,1	116,3
Baliqchi	2 127,8	2 370	111,4
Bo‘ston	2 190	2 476,3	113,1
Buloqboshi	2 216,3	2 627,5	118,6
Jalaquduq	2 322,3	2 736,3	117,8
Izboskan	2 668,5	3 541,5	132,7
Ulug‘nor	2 237,3	2 601,8	116,3
Qo‘rg‘ontepa	2 667,8	3 051,2	114,4
Asaka	5 543,3	6 205,5	111,9
Marhamat	2 560,9	2 854,9	111,5
Shahrixon	2 722,8	2 741,5	100,7
Paxtaobod	2 775,8	3 127,3	112,7
Xo‘jaobod	2 413,7	2 580,1	106,9


**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyat ko'rsatkichiga nisbati, foizda**  
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (6 205,5 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 55,8 % ga yuqori), Andijon shahri (5 112,2 ming so'm 28,4 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani 2 476,3 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 62,2 % ga past) va Baliqchi tumani (2 370,0 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 59,5 % ga past)da kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2023 yil Dekabr oyidan **1 050 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023- yil 23- nayabrdagi Q 65-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilda bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqtি**- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqt davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqt deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darjasini vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.